

## PEPLIKA-TAKRORLAR HAQIDA

*Muazzama Foziliya*  
*Turkshunoslik fakulteti talabasi*  
*TDSHU,*

**Аннотация:** Ushbu maqolada dialog suhbatdoshlar replikasining tez almashinib turishiga asoslanishi, replikalar qisqa, ammo o‘zaro ma’lum sintaktik munosabatda bo‘lishi bilan ajralib turishi haqida so‘z boradi. Replika atamasining “*yana qo‘shaman*” degan ma’noni bildirishi, dialog ishtirokchilaridan birining nutqi tamomlangan joy replikaning chegarasi sanalishi, replikalar semantik va grammatik tomondan bir-biri bilan bog‘lanishi haqida izoh berilgan. Shuningdek replika-takrorlar leksik-fonetik vosita sanalib, dialogik nutqda sub’ektiv modallik ifodalashi, takror so‘zlashuv nutqiga xos bo‘lgan sintaktik qurilish bo‘lib, unda turli so‘z turkumlariga oid so‘zlar takrorlanishi, replika-takrorlarda qo‘shimcha mazmun ohang orqali ro‘yobga chiqishi sharhlangan. Turk adibi Rashod Nuri Guntekinning “Choliqushi” romanidagi dialoglarda uchragan so‘z va birikma shaklidagi replika-takrorlar to‘plangani va ular ifoda mazmuniga ko‘ra izohlangani aytilgan. Mazkur asarda qo‘llangan replika-takrorlar *ajablanish-ta’kid* (köpeklere), *xushomad-ta’kid* (Feride), *ta’kid-qiziqish* (ne zannedecekler), *do‘q-po‘pisa* (mutlaka geri alacağım), *ranjish-ta’kid* (doktorun kızı), *so‘roq ta’kid* (Candarma), *hayajon-ta’kid* (sevdim) kabi modal mazmunlarni ifodalangani misollar orqali tahlil qilingan. Xulosa qismida replika-takrorlar o‘ziga xos birlik ekanligi, so‘zlashuv jarayonida vaziyat hamda shaxsning ruhiyati bilan bog‘liq sub’ektiv munosabatini aks ettirishi, ulardan so‘ng ishlatiladigan tinish belgilari ham ohang bilan bog‘liq holda qo‘yilishi ta’kidlangan.

**Калит сўзлар:** til ilmi, replika, dialogik nutq, replika-takrorlar, turli so‘z turkumlari, sub’ektiv modallik, turk adibi Rashod Nuri Guntekin, “Choliqushi” romani, so‘z va birikma, to‘plamoq, ifoda mazmuni, tinish belgilari.

## ABOUT PEPLIKA-REPETITIONS

*Muazzama Foziliya*  
*Student*  
*Faculty of Turkic Studies*  
*Tashkent State University of Oriental Studies,*

**Abstract:** This article discusses the fact that dialogue is based on the rapid exchange of replicas of the interlocutors, and that the replicas are short but have a certain syntactic relationship with each other. It is explained that the term replica means “I will add again”,

that the place where one of the dialogue participants ends is considered the boundary of the replica, and that the replicas are semantically and grammatically related to each other. Replica-repetition is also a lexical-phonetic tool, an expression of subjective modality in dialogic speech, a syntactic structure inherent in repetitive speech, in which the repetition of words belonging to different word groups, replica-repetition more content is interpreted through the tone. It is said that in the dialogues of the novel “Cholikushi” by the Turkish writer Rashod Nuri Guntekin, replicas in the form of words and phrases are collected and interpreted according to the content of the expression. Replicas used in this play *surprise* (köpeklere), *compliment* (Feride), *emphasis* (ne zannedecekler), *threats* (mutlaka geri alacağım), *resentment* (doktorun kızı), *question* (Candarma), *excitement* (sevdim) the expression of modal content such as is analyzed by examples. In the concluding part, it is important that replicas are a specific unit, reflect the subjective attitude of the situation and the person's psyche in the process of speech, and the punctuation used after them should be related to the tone. kidlangan.

**Keywords:** linguistics, replica, dialogic speech, replica-repetitions, different word groups, subjective modality, Turkish writer Rashod Nuri Guntekin, novel “Cholikushi”, word and compound, collection, expression content, punctuation.

## Kirish

Til ilmidan ayonki, dialog suhbatdoshlar replikasining tez almashinib turishiga asoslangandir. Replikalar qisqa, ammo o‘zaro ma’lum sintaktik munosabatda bo‘lishi bilan ajralib turadi. “Replika” so‘zi aslida lotincha “repliko” va fransuzcha “replik” so‘zidan olingan bo‘lib “tag‘in”, yana “yana qo‘shaman” degan ma’nolarni bildiradi. Tilshunoslik atamasi sifatida “**replika** so‘zlovchi va suhbatdoshning so‘ziga javob, e’tiroz hamda luqmasini ifodalovchi nutq bo‘lagidir”<sup>1</sup>. A.P.Yakubovkny esa “dialog ishtirokchilaridan birining nutqi tamomlangan joy replikaning chegarasi sanaladi”<sup>2</sup> deb qo‘shimcha izoh bergan. Dialogik nutqning maxsus birligi bo‘lgan replikalar semantik va grammatik tomondan bir-biri bilan bog‘langandir<sup>3</sup>. Replika-takrorlar tilshunoslarning diqqat-e’tiborini doimo o‘ziga jalb qilib kelgan dialogik birlik elementi hisoblanadi. Ko‘pchilik tadqiqotchilar replika-

<sup>1</sup> С.И.Ожогов. Словарь русский языка. М., 1968, стр. 669

<sup>2</sup> А.П.Якубовсий. О диалогический речи. В сборник “Русская речь”, I. Петербург, 1923, стр. 139.

<sup>3</sup> Б.Ўринбоев. Ўзбек сўзлашув нутки. Т.. Фан, 1982, 17-бет.

takrorlarning ayrim xarakterli belgilarini tasvirlash bilan qanoatlansalar, boshqalar takrordagi leksik vositalarni xarakterlash bilan chegaralanadilar. Bundan tashqari, ular takror tushunchasini har xil izohlaydilar. Baʼzilar grammatik hodisa deb qarasa, boshqalar leksik hodisa sifatida yondoshadilar. Dialogik nutqni tadqiq qilgan rus tilshunoslari V.G.Vinokur, M.L.Mixlina, V.Volkov, M.P.Svyatogor, N.Y.Shvedova va boshqalarning ishida replika-takrorlarning oʻziga xos xususiyatlari, farqlanishi, turlari haqida qimmatli fikrlarni uchratamiz. Oʻzbek tilshunosligida B.Oʻrinboevning takrorlar haqidagi fikrlari oʻziga xos qadr-qimmatga egadir. U takrorga quyidagicha taʼrif beradi: “keyingi replika oldingi replika tarkibidagi biror soʻzni, boʻlakni, butun bir gapni takrorlash asosida takror replika (yoki takror) tuziladi<sup>4</sup>. Tilshunos U.Lafasov oʻzining nomzodlik dissertatsiyasida replika-takrorlarni dialogik nutqdagi asosiy subʼektiv modallik ifodalochi vosita sifatida tadqiq qilgan<sup>5</sup>. Replika-takrorlar leksik-fonetik usulga xos vosita sanalib, dialogik nutqda subʼektiv modallik ifodalaydi. B.Oʻrinboev replika-takrorda soʻzlovchining nutqidagi boʻlak aynan yoki grammatik shakli oʻzgargan holda qaytarilishi mumkinligini aytadi<sup>6</sup>. Takror dialoglarda koʻp tarqalgan leksik-grammatik-fonegik hodisadir. Demak, takror soʻzlashuv nutqiga xos boʻlgan sintakgik qurilish boʻlib, u dialogik birlik hisoblanadi. Unda turli soʻz turkumlariga oid soʻzlar takrorlanadi. Maʼlumki, har bir soʻz oʻzining leksik maʼnosiga ega. Bundan tashqari, soʻz va gaplarga soʻzlovchi tomonidan ustama mazmun yuklanadi – bu subʼektiv modallikdir. Dialogik nutqda subʼektiv modallik ifodalovchi vositalardan sanalgan replika-takrorlarda qoʻshimcha mazmun<sup>7</sup> ohang orqali roʻyobga chiqadi. Dialoglarda replika-takrorlar keng qoʻllanadi. Ular turli modal mazmunlarni ifodalaydi va subʼektiv modallik ifodalochi vosita sifatida muhim ahamiyatga egadir. Turk adibi Rashod Nuri Guntekin

<sup>4</sup> Б.Ўринбоев. Номи қайд этилган асар. Т., 1982, 108-бет.

<sup>5</sup> У.Лафасов. “Диалогик нутқла субъектив модалликнинг ифодаланиши” номли номзодлик диссерцияси. Т., 1996, 45-бет.

<sup>6</sup> Б.Ўринбоев. Номи қайд этилган асар. Т., 1982, 108-бет.

<sup>7</sup> Изоҳ: **Модал мазмун** тушунчаси **модал маънога** нисбатан кенгдир, чунки диалогларда асосан сўз-гаплар кўпроқ қўлланади.

o‘zining “Choliqushi” romanidagi dialoglarda so‘z va birikma shaklidagi replika-takrorlarni to‘pladik va ifoda mazmuniga ko‘ra izohlashga harakat qildik:

### 1. Ajablanish-ta’kid mazmuni:

- *Köpeklere* yiyecek vermek fena mı Ma Sör? dedim
- Hangi *köpeklere*? Ne yemeği?
- Viranedeki *köpeklere*... Ah, Ma Sör, beni görünce ne kadar sevindiklerini bilseniz... (24-bet).

#### Tarjimasi:

- *Итларга* овқат бериш ҳам ёмон нарсами, масўр?— дедим.
- Қанақа *итларга*? Қанақа овқат?
- Вайронадаги *итларга*... Оҳ, та soeur(опам), мен борганимда қанчалик суюнишиганини бир кўрсангиз эди...

### 2. Xushomad-ta’kid mazmuni:

- *Çalıkuşu*...
- Bu, nasıl isim böyle?
- Pardon, beni mektepte böyle çağırırlar da... Asıl ismim **Feride**. Kendim gibi yuvarlak, zarafetsiz bir isim.
- **Feride Hanım**... Sizin adınız da kendiniz gibi güzel, emin olun... Keşke oğluma sizin gibisini bulsam...(35-bet)

#### Tarjimasi:

- Чолиқуши.
- Ие, бу қандай от бўлди?
- Pardon (кечирасиз), мени мактабда шундай дейишади-да... Асл исмим **Фарида**. Ўзим сингари қўпол-тўпол исм.
- **Фарида хоним**... Сизнинг отингиз ҳам ўзингиз сингари гўзал, бунга амин бўлинг.

### 3. Та’kid-qiziqish mazmuni:

– *Biliyor musun Feride, dedi. Bu pozda yürüdüğümüzü gören arkadaşlar ne zannedecekler?*

– *Ne zannedecekler?*

– *Feride de âşık olmuş... Mişel'e derdini anlatıyor, diyecekler...(45-bet)*

#### **Tarjiması:**

– *Биласанми, Фарида, бу аҳволда юрганимизни дугоналаримиз кўришса, нима деб ўйлашади? — деб сўради.*

– *Нима деб ўйлашади?*

– *Фарида ҳам ошиқ бўлибди... Мишелга дардини айтяпти, деб ўйлашади.*

#### **4. Do‘q-po‘pisa mazmuni:**

– *Sözünü mutlaka geri alacaksın...*

– *Mutlaka geri alacağım, dedi. Ne istersen yapacağım, bırak beni...*

– *Ama öyle hatır için değil, beni aldatmak için değil...*

– *Peki, hatır için değil... Seni aldatmak için değil... Sahiden... (64-bet)*

#### **Tarjiması:**

– *Сўзингни қайтариб ол...*

– *Хўп, қайтариб олдим. Нима десанг қиламан, лекин мени қўйиб юбор.*

– *Аммо юз-хотир учун эмас, мени алдаш учун эмас... Чиндан...*

– *Жуда соз, юз-хотир учун эмас, сени алдаш учун эмас... Чиндан...*

#### **5. Ranjish-ta'kid mazmuni:**

– *Avrupa'ya bir seyahat varmış öyle mi? O, cevap verdi:*

– *Bir fikir. Daha doğrusu, benim fikrim de değil. Madrid'deki amcamın bir tasavvuru. Nereden duydun? Kısa bir tereddüitten sonra:*

– *Doktorun kızından, dedim.*

– *Doktorun kızı, sana ne çok haberler veriyor, Feride? (94-bet)*

#### **Tarjiması:**

– *Европага саёҳат қилармишсан, ростми?*

– *Шундай бир фикр бор. Тўғриси, меники ҳам эмас, Мадриддаги амакимнинг хаёли,*

– *деб жавоб берди. – Қаердан эшитдинг?*

*Бир оз иккиланиб турганимдан сўнг:*

– *Докторнинг қизидан, – дедим.*

– *Докторнинг қизи сенга мунча кўп хабарлар етказиб турар экан, Фарида?*

#### **6. So‘roq ta’kid mazmuni:**

- *Senin yengen yok mu?*

– *Var amma, o cara siz, onu da çoban Hasan’a veririz.*

– *Senin ağan ne iş görür?*

– **Candarma.**

– **Candarma** ne yapar?

*Vehbi, düşüne düşüne başını kaşdı; sonra:*

– *Canavarları çeser, dedi (182-bet)*

#### **Tarjiması:**

– *Нима, ҳали келинойинг йўқми?*

– *Бор, лекин у қора қиз. Уни Ҳасан чўпонга берамиз.*

– *Аканг нима иш қилади?*

– **Жандарма.**

– **Жандарма** нима қилади?

*Ваҳби ўйланиб қолди. Кейин бошини қашиб:*

– *Кофирларни сўяди, — деди.*

#### **7. Hayajon-ta’kid mazmuni:**

– *Şimdi söyle bana bakayım Kâmrân, gülbeşekeri beğendin mi?*

*Genç adam, gülerek cevap verdi:*

– *Beğendim.*

– *Sevdiñ mi?*

– *Sevdim.*

– *Bir daha söyle.*

– *Beğendim ve sevdim (385-bet).*

### **Tarjiması:**

– *Энди айт-чи, Комрон, гулбашакар ёқдимми?*

*Йигит кулиб жавоб қилди:*

– *Ёқди.*

– *Яхши кўриб қолдингми?*

– *Яхши кўриб қолдим.*

– *Яна бир марта айт.*

– *Яхши кўриб қолдим.*

Misollardan ko‘rinib turibdiki, replika-takrorlar dialoglarda xilma-xil mazmunlarni ifodalaydi. Mazkur dialoglarda replika-takrorlar **ajablanish-ta’kid, xushomad-ta’kid, ta’kid-qiziqish, do‘q-po‘pisa, ranjish-ta’kid, so‘roq ta’kid, hayajon-ta’kid** kabi modal mazmunlar ifodalangan. Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, replika-takrorlar o‘ziga xos birlik bo‘lib, so‘zlashuv jarayonida vaziyat hamda shaxsning ruhiyati bilan bog‘liq sub’ektiv munosabatini aks ettiradi. Ulardan so‘ng ishlatiladigan tinish belgilari ham ohang bilan bog‘liq holda qo‘yiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. С.И.Ожогов. Словарь русский языка. М., 1968, стр. 669
2. А.П.Якубовсий. О диалогический речи. В сборник “Русская речь”, I. Петербург, 1923, стр. 139.
3. Б.Ўринбоев. Ўзбек сўзлашув нутқи. Т.. Фан, 1982, 17-бет.
4. У.Лафасов. “Диалогик нутқла субъектив модалликнинг ифодаланиши” номли номзодлик диссерцияси. Т., 1996, 45-бет.



5. А.Ҳазратқулов. “Ҳозирги ўзбек адабий тилида диалогик нутқ” номли номз. аиССР. Самарқанд., 1966;
6. А.Бобоева. “Ҳозирги ўзбек адабий тилида тўлиқсиз гаплар” номли номз. диссер. Т., 1968;
7. И.Шодмонов. “Ҳозирги ўзбек адабий тилида сўз-гаплар” ” номли номз. диссер. Т., 1970;
8. С.М.Холдорова. “Ҳозирги ўзбек адабий тили диалогик нутқнинг семантик-структурал хусусиятлари” номли номз. диссер. Т., 1974;
9. Б.Ўринбоев. “Ўзбек сўзлашув нутқи синтаксиси масалалари.” номли доктор. диссер. Самарқанд, 1975;
10. М.Турсунпўлатов. “Ўзбек сўзлашув нутқи” номли номз. диссер. Т., 1982.
11. Б.Ўринбоев. Ҳозирги ўзбек тилида вокатив гап категорияси. Т., Фан, 1972.
12. Р.Амиров. Особенности синтаксис казахский разговорной речи. Алма-Ата, 1972.
13. А.Нурмаханова. “Турк тилларида модаллик ва оҳангга кўра гапнинг турлари” номли докт. диссер. Т., 1966.
14. Т В Борисова Лексические способы выражения модальности в современном немецком языке. Автореферат канд. филол. наук. М., 1951.
15. В.Ф.Шабалина. К вопросу о выражении категории модальности в русский языке. Автореферат кан. фил.наук. Л., 1955.
16. Д.И.Ганич. Модальные функции вводных слов в современном русском языке. Автореферат канд. филол. наук. Киев, 1956.
17. А.Б Шапиро. Модальность и предикативность как признак и предложения в современном русском языке. В журнале “Научные доклады высше школе”. Серия филологический науке. М., 1958.
18. А.Нурмонов, Н.Махмудов, А.Аҳмедов, С.Солихўжаева. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. Т., Фан, 1992.
19. Н.А\_Агазада. К вопросу о категории наклонения и модальности в современном азербайджанском языке. Баку, 1965.
20. Г.Н.Зикриллаев. Модаллик ва аниқлик майлининг шакллари системаси” номли номз. диссер. Т, 1978.